



PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE USE OF RELIGIOUS VALUES IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE

Sitora Ayonovna Azamova

Acting Associate Professor of the Department of Social Sciences, PhD

Shahrisabz State Pedagogical Institute

azamovasitora04@gmail.com

Shahrisabz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: globalization, ecological culture, nature, socio-cultural factors, science and technology, global climate change, religious consciousness.

Received: 17.04.26

Accepted: 18.04.26

Published: 19.04.26

Abstract: This article discusses the role of religious values in the formation of ecological culture, their influence on shaping a positive attitude of individuals toward the environment and nature. It also examines current global environmental problems and ways to mitigate their negative consequences, including water scarcity and global climate change.

EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANISHIDA DINIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING FALSAFIY TAHLILI

Sitora Ayonovna Azamova

Ijtimoiy fanlar kafedrasida v.b dotsenti, f.f.f.d (PhD)

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

azamovasitora04@gmail.com

Shahrisabz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: globallashuv, ekologik madaniyat, ona tabiat, ijtimoiy-madaniy omillar, fan-texnika, global iqlim o'zgarishi, diniy ong.

Annotatsiya: Maqolada ekologik madaniyatni shakllantirishda diniy qadriyatlarining roli, ularning insonlarda atrof-muhitga hamda ona tabiatga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirish, bugungi kunda global ekologik muammolar va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, jumladan suv resurslarining yetishmasligi, global iqlim o'zgarishlari to'g'risida fikr yuritiladi.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Ситора Аёновна Азамова

Исполняющая обязанности доцента кафедры социальных наук, PhD

Шахрисабзский государственный педагогический институт

azamovasilitora04@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, экологическая культура, природа, социокультурные факторы, наука и техника, глобальное изменение климата, религиозное сознание.

Аннотация: В статье рассматривается роль религиозных ценностей в формировании экологической культуры, их влияние на формирование у человека положительного отношения к окружающей среде и природе. Также анализируются современные глобальные экологические проблемы и пути устранения их негативных последствий, в частности нехватка водных ресурсов и глобальные климатические изменения.

Kirish. Jahonda globallashuv sharoitida dunyoning ekologik manzarasida bir qator jiddiy va ziddiyatli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bunday global ekologik o'zgarishlarning zamirida yer sayyorasini butun bir koinotda yagona ekanligini oqilona baholamaslik, uning biosfera qatlamini o'ziga xos fenomen sifatida mavjud bo'lishiga antropogen ta'sirni oshib borishi bilan bog'liq holda yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni hal etish muhim ahamiyatga ega. Zero, yer sayyorasidagi bunday murakkab o'zgarishlarni yuzaga kelishi insoniyat kelajagiga bo'lgan ishonch bilan bog'liq muammolarni paydo qiladi.

Sayyoramizning kelajagi yosh avlodning ekologik madaniyatiga bog'liq ekanligi barchamizga yaxshi ayon. Zero, global ekologik muammolarni faqat milliy va global miqyosdagi birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan hal qilish mumkin. Shu bois, 1992-yil 15-aprel kuni BMTning atrof-muhit muammolarini muhokamasiga bag'ishlangan konferensiyasida insoniyat hayoti va barqarorligi uchun ekologik tarbiyaning ulkan ahamiyatiga to'xtalilib, ushbu kunni "Ekologik bilimlar kuni" sifatida nishonlash taklif etilgandi.

Bundan asosiy maqsad esa ekologik bilimlarni targ'ib qilish, ekologik madaniyatni shakllantirish, aholini dolzarb ekologik muammolar va atrof-muhit holati to'g'risida xabardor qilishdan iborat. Har yili dunyoning ko'plab davlatlari qatori mamlakatimizda ham ushbu sana keng nishonlanishi sababi ham shunda.

So‘nggi yillarda yurtimizda global rivojlanish va iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq ekologik muammolarni oldini olish va bartaraf etishda fuqarolarning ishtirokini ta‘minlash, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta‘minlash va shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib berishi belgilab qo‘yildi. 2030- yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘shishni ta‘minlash dasturida aholining ekologik huquqlari va majburiyatlari o‘z aksini topdi. Jamiyatda huquqiy ong va ekologik madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta‘minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Biroq jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirishda bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarda uzviylik mavjud emasligini ko‘rsatmoqda.

Ushbu masalada oila, mahalla va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta‘minlanmagan. Shu sababli “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iste‘mol madaniyatini shakllantirish maqsadida “yashil” iqtisodiyotni barpo etishga yoshlarni jalb etish bo‘yicha maxsus dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori loyihasini ishlab chiqish belgilandi.

Mazkur hujjat bilan aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, o‘shib kelayotgan yosh avlodni “yashil” iqtisodiyotga jalb qilgan holda, ularda “yashil” iste‘mol madaniyatini shakllantirish, ekologik ta‘lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida “2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi hamda konsepsiyasi amalga oshirish bo‘yicha 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ham aholi orasida ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirishga doir vazifalar o‘rin olgan. Jahon ilm-fanida global ekologik muammolarning barcha sohalar rivojiga, atrof-muhit barqarorligiga, ekologik vaziyat xususiyatlari va munosabatlar xarakteriga ta‘sirini ilmiy-nazariy o‘rganish, uning ijtimoiy munosabatlardagi rolini tadqiq etish, barqarorlikni ta‘minlashda inson ekologik madaniyatini shakllantirishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Turli ilmiy-nazariy va mafkuraviy jarayonlardan tahlil etilgan tadqiqotlar, ekologik madaniyat modellariga oid nazariyalar, ta‘limotlar va g‘oyalar ekologik globallashtirish jarayonida yoshlar ekologik madaniyatini yanada takomillashtirishni, uning

ekologik ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishni va xalqaro standartlarga moslashtirishni ilgari surmoqda. Shu munosabat bilan o'quvchilar ekologik madaniyatini yuksaltirishning, ta'lim muassasalari va ekologik tarbiyaga aloqador sub'ektlar vazifalarini optimallashtirishning ijtimoiy mexanizmlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda. Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlash maqsadida izchil ishlar olib borilmoqda. "Eng muhim masala –aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin. Shu sababli barqaror ekologik muhitni yaratishning, o'quvchilarekologik madaniyatini shakllantirishning yangi zamonaviy modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishninghamda "ekologik shaxs"ni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Ekologik vaziyat, uning keskinlashuvi, ekologik munosabatlar xarakterining o'zgarishi, ekologik muammolarning umumsayyoraviy tus olgani mutaxassislarining mavzuga e'tiborini nihoyatda kuchaytirdi. Jahon ilm-fanida ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Xususan, xorijda F.Bekon, J.J.Russo, V.Hiyosle atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan siyosat asoslariga, R.Di Silvestroning sayyoradagi bioxilmaxillikni saqlash masalalariga doir asarlari e'tiborga loyiq Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamalakatlarida ekologiyaga doir ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Jumladan, M.A.Vostrikova, R.S.Gaysina, YE.V.Luneva asarlarida ekologik vaziyatda yuz berayotgan o'zgarishlar va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish zaruriyati, A.Kumar, YE.V.Matveyeva, A.V.Karanda asarlarida xalqaro, mintaqaviy va milliy ekologik munosabatlar xarakteridagi o'zgarishlar K.A.Berdenova, G.A.Drobot asarlarida ekologik muammolarning sabablari, namoyon bo'lish shakllari va bartaraf etish yo'llari, V.Y.Vershinina, A.Y.Ignatenko, M.N.Kopilov, S.M.Kopilov, P.M.Mozias asarlarida davlatlarning bugungi kundagi ekologik siyosati xususiyatlari asoslab berilgan. O'zbekistonda ekologik soha bilan bog'liq ilmiy-falsafiy muammolar atroflicha tadqiq qilingan. Jumladan, H.Ahmedov, S.Mamashokirov, H.Salomova, O'.Tilavov [5] ishlarida barqaror ekologik taraqqiyot va xavfsizlikning milliy, hududiy va global muammolari bayon etilgan.

A.Berdimurotova, B.N.Omonov o'z asarlarida Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik muammolarga doir ilmiy qarashlarini bayon qilganlar. A.Q.Aymatov, Z.Y.Adilov, S.U.Kistaubayev, Sh.B.Samanova, Z.SH.Yazdonov, U.G'.Saidova, X.Juraqulov, F.Qilichev,

A.Qo'ldoshev [5] dissertatsiyalarida esa shaxs ekologik ongini shakllantirish masalalari talqin etilgan. Ilmiy manbalar tasnifi va talqini ko'rsatadiki, mutaxassislar, bir tomondan, zamonaviy ekologik jarayonlarning turli xususiyatlari va yo'nalishlari, ikkinchi tomondan esa, davlat ekologik siyosatining asoslarini mufassal tadqiq qilganlar. Biroq, ular ekologik globallashuv sharoitida – umumta'lim maktablari o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish kontekstidagi muammolarni tadqiq etishni maqsad qilib qo'ymaganlar. Shuni hisobga olgan holda, mazkur dissertatsiyada ushbu muammo tahliliga alohida e'tibor qaratilgan.

Muhokama va natijalar. Har qanday an'anaviy din insoniyat tarixida alohida o'rin tutadi. Diniy ongi shakllanmagan xalq bo'lmagan. Biroq odamlarning dinga munosabati vaqti-vaqti bilan turlicha takomillashib borgan. Buning uchun, avvalo, diniy qiziqish va bilim har bir ongli insonning ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqadi. O'zbek xalqi uchun, ayniqsa, mustaqillikning ilk kunlaridanoq bunday ma'naviy ehtiyoj alohida o'rin tutadi. Xalqimizning o'rta asrlarga borib taqaladigan tarixida diniy tinchlik va xalqlarning totuvligi masalasi doimo kun tartibida bo'lib kelgan. Bunday jamiyatning yaxlitligi, o'z navbatida, har bir dunyoviy davlatda erkin faoliyat yuritayotgan an'anaviy dinlarning bebaho boyligidir. Shu boisdan ham G.N.Eshanova "Diniy qadriyatlar tizimi ideal tarzda namoyon bo'ladi, shuningdek inson ilohiy qonunlarni muqaddas qadriyat sifatida qabul qiladi. Diniy e'tiqod hamisha insoniyat axloqining poydevorini tashkil etib kelgan"[4] deb ta'kidlaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar o'zini dunyoviy davlat sifatida shakllantirgan edi. Davlatimiz tomonidan diniy sohada jamiyatda totuvlik va hamjihatlikni saqlash, rivojlantirishga qaratilgan konstruktiv siyosat izchil olib borilib, bu borada ko'plab dasturlar qabul qilindi. Ularni amalga oshirishda mamlakatimizdagi turli diniy birlashmalarning vakillari ishtirok etmoqda. Buning sababi bugungi kunda dunyoda etnik va diniy nizolarning ko'pligidir. O'zbekiston sharoitida diniy konfessiyalarning faoliyati va ularda qadriyatlarga munosabat orqali ekologik madaniyatni shakllantirishga teng imkoniyat yaratilgan. 30 yillik suverenitet davomida mamlakatimizda ana shunday hamkorlik va tinchlikka da'vat etuvchi diniy qadriyatlar masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. O'zbek xalqi azaldan dinni milliy birdamlikning zaruriy sharti deb bilgan, shu bilan birga, milliy qadriyatlar va ma'naviyatga sodiq qolgan. Islom dini dastlab yurtimizga zo'rlik bilan emas, tinch yo'l bilan kirdi. O'zbekiston dunyoviy davlat sifatida o'z boshqaruv tizimida din ishlariga bevosita aralashmagan bo'lsa-da, tinchlik va birodarlikni targ'ib qiluvchi ko'p asrlik diniy qadriyatlar xalq orasida chuqur ildiz otgan. O'zbekiston tarixi bilan shug'ullangan olimlar Sharqda tolerantlik qadimdan mavjudligini, xususan Kushonlar davlati tarixida turli diniy e'tiqod, qavm vakillari o'zaro tinch-totuv, ahillikda yashagani, Markaziy Osiyoda, hatto siyosiy raqiblarning o'zaro tolerant: xayrixohlik, bir-birini tushunish,

rahmshafqat, murosa va sabr-toqat bilan munosabatda bo'lganliklari haqida ko'plab misollar keltirganlar va hozir ham bu fazilatlar o'zgartirilmasdan saqlanib qolganligi haqida fikr yuritganlar[3].

Bu, o'z navbatida, o'zbek xalqining milliy o'ziga xosligi va diniy pozitsiyasi azaldan muvaffaqiyatli uyg'unlashganidan dalolat beradi. Masalan, sunnat, er-xotinning nikohi, Qurbon hayitlari, motam, sadaqa, fitr, fотиha va boshqalar. Diniy an'analar o'zining hayotiyiligini isbotladi. O'z navbatida "...diniy qadriyatlar har bir dinning muqaddas kitoblari, ta'limotlari bilan bog'liq holda izohlanadi. Borliqni, insonni Yaratuvchi, Boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi sifatida haqiqat, adolat, ezgulik, yaxshilik, saxovat, go'zallik va boshqa ma'naviy barkamollikning oliy namunasi bo'lgan Allohga munosabat qadriyatdir. Alloh yaratganlari ichida insonni Xalifa sifatida qadrini ulug'laydi. Inson Yaratgan tomonidan yuborilgan axloqiy qonunlarni muqaddas qadriyat sifatida qabul qiladi hamda axloqiy normalar tizimi shakllanadi"[4].

Diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash o'z navbatida ekologik madaniyatni yuksaltiradi. Shu xususda N.Z.Madaminova: "...diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg'unligidagi me'yorlarning buzilishi diniy va dunyoviy qadriyatlarning qadrsizlanishi, ya'ni odamlarning axloqiy va akseologik jihatdan tanazzulga uchrashiga olib keladi" [2].

Binobarin, din sohasidagi axborot, ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri an'anaviy qadriyatlarni tiklash bo'ladi. O'z navbatida Sh.O'.Axrorova to'g'ri ta'kidlaganidek, "Diniy qadriyatlar ham "milliylashgan" ko'rinishda amal qilishi, diniy amal va qoidalar yaralishidayoq milliy amal va qoidalarga asoslanganligi, din chegara hatlab o'tayotganda o'z hududi milliy unsurlarini ham olib o'tishini nazarda tutib, ijtimoiy siyosat milliy qadriyatlarni o'rganish va takomillashtirishda mana shu uyg'unlikni e'tiborga olish lozim"[1], deydi.

Din va an'ana yonma-yon bo'lsa, din rivojlanadi, urf-odat boyib boradi, millat din ruhini his qiladi, uni qadriyat sifatida qabul qiladi. Ma'naviy qadriyatlarimiz dinimiz va ajdodlar an'analari o'rtasidagi chuqur bog'liqlikning o'rganilgan mahsulidir. Binobarin, din va an'ana birligi o'tmishimiz tarixi, kelajagimiz garovidir. An'anaviy qadriyatlar zamonaviy dunyoviy jamiyatlarda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi va ichki siyosiy jarayonlarni barqarorlashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Nafaqat O'zbekiston jamiyati, balki butun jahon hamjamiyati, jumladan, tarixiy taqdiri mushtarak bo'lgan MDH davlatlari ham bu omilga alohida e'tibor qaratmoqda. Binobarin, millatni shakllantirish, qadriyatlarni himoya qilish mamlakatning ichki barqarorligi va davlat poydevori yaxlitligini himoya qilishdir. Diniy qadriyatlarning asosi tinchlik va totuvlikdir. Chunki faqat tinch-osoyishta hayot dindor kishiga Yaratgan oldidagi insoniy burchlarini bajarish imkonini beradi. Dunyoviy jamiyat nuqtayi nazaridan esa

tinchlikning ahamiyati beqiyos. Din ham, dunyo ishlari ham faqat tinchlikda gullab-yashnaydi. Dinning ma'naviy salohiyati va asl mazmuni inson hayotiga chuqur ma'naviy mazmun baxsh etadi. Dinning faqat rasmiy tomoniga e'tibor qaratish va uning mazmunini nazardan chetda qoldirish – din tushunchasini cheklash, din institutlari doirasini toraytirish, uning hayotiyligi va moslashuvchanligiga sun'iy ravishda putur yetkazishdir. Binobarin, dinning ma'naviy qadriyatlari va salohiyatini to'g'ri baholab, undan to'g'ri foydalansak, jamiyatning ma'naviy saviyasi yuksaladi, dunyoviylikimiz yanada barkamol bo'ladi. Bu borada bevosita diniy bilimlar bilan bog'liq bo'lgan masalalarga e'tibor qaratish lozim. Kishilik jamiyati o'zining butun taraqqiyoti davomida ma'naviy kamolotga e'tibor qaratgan. "Komil inson" ideali barcha jamiyatlarga, barcha dinlarga xosdir. Zero, ma'naviy barkamol inson din nuqtayi nazaridan gunohdan, qonun nuqtayi nazaridan jinoyatdan uzoqlashadi, u eng yaxshi axloqiy g'oyalarga intiladi, insoniyat jamiyatining umumiy manfaati, yuksak ma'naviyatga xizmat qiladi. Shu boisdan ham Sh.O'.Axrorova "Ijtimoiy siyosat milliy qadriyatlar bilan uyg'unlikda diniy qadriyatlarlarning takomillashuvini ham hisobga olishi lozim. Chunki, birinchidan, diniy qadriyatlar milliy qadriyatlar elementlarisiz amal qilmaydi; ikkinchidan, ular o'z navbatida milliy qadriyatlar shakllanishiga ta'sir qiladi; uchinchidan, ularning aksari azaldan muayyan urug'-qabilalar an'alariga ilohiy tus berib, aqidaga aylantirilgan ko'rinishidir; to'rtinchidan, diniy ta'limot qaysi hududda yaralgan bo'lsa, diniy qoidalarda o'sha hudud xalqlari milliy amal va qoidalarining namoyon bo'lishidir" [1] deb yozadi.

Xulosa. Binobarin, nafaqat axborot va targ'ibot sohasi mutaxassislari, balki diniy birlashmalar vakillari ham barcha dinlar, millatlar va insoniyat uchun umumiy bo'lgan ma'naviy qadriyatlarni har tomonlama targ'ib etishi zarur. Shu bilan birga, har bir ma'ruza, nasihatlarni bugungi jamiyatning o'ziga xos jihatlari, taraqqiyot darajasini hisobga olgan holda aytish zarurligiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axrorova Sh.O'. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda milliy qadriyatlarning o'rni. Fals.fan.bo'y. fal. dok. (PhD) dis. avtor.. – Samarqand, 2021. – B.13.
2. Madaminova N.Z. Diniylik va dunyoviylik konvergentsiyasi. Zamonaviy ta'lim. – Toshkent. 2018. № 9. – B.23.
3. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. и др. Дальверзинтепе – кушанский город на юге Узбекистана. – Ташкент, 1978.
4. Eshanova G.N. Diniy qadriyatlar va tasviriy san'at integratsiyasining shaxs ma'naviyatiga ta'siri. Fals. fan. nom. ...dis. avtor.. –Toshkent, 2011. – B.12.

5. Azamova.S.A. Ekologik globallashuv sharoitida o‘zbekiston umumta’lim maktablari o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro: BuxDu, 2024.